

## Soliq xizmati organlariga Yosh mutaxassislarni stajirovka o‘tash uchun tanlab olish

### DASTURI

Mazkur Soliq xizmati organlariga Yosh mutaxassislarni stajirovka o‘tash uchun tanlab olish dasturi (keyingi o‘rinlarda – Dastur), O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati kengashining “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi bo‘yicha 2023-yilning birinchi yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida” 2023-yil 12-sentabrdagi KQ-570-IV-son qaroriga muvofiq Soliq qo‘mitasi hamda hududiy soliq boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda – soliq xizmati organi)ga oliy ta‘lim muassasalari (keyingi o‘rinlarda – OTM)ning bitiruvchi kursida o‘qiyotgan qobiliyatli yoshlarni saralab olish, ularning stajirovkasini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

**Dastur maqsadi** – soliq xizmati organida xizmat qilish uchun eng munosib kadrlarni tanlash va istiqbolli kadrlarni tayyorlashni tizimli yo‘lga qo‘yish hamda OTM bitiruvchilarini xizmatga jalb qilish samaradorligini oshirishdan iborat.

#### **Dastur vazifalari:**

OTMlar hamda soliq xizmati organi o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

eng salohiyatli va bilimli bitiruvchilarni tanlash;

nomzodlarni soliq xizmati organida stajirovka o‘tash uchun yo‘naltirish hamda “ustoz-shogird” an‘anasi asosida tajribali ustoz-mentorlarga biriktirish;

stajirovkani muvaffaqiyatli yakunlagan bitiruvchilarni tanlov asosida soliq xizmati organi xizmatiga ishga qabul qilish.

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Dasturda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**oliy ta‘lim muassasasi** – bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta‘minlovchi davlat ta‘lim muassasasi;

**bitiruvchi** – OTM kunduzgi shaklining bakalavriat bosqichi bitiruv kurs talabalari;

**Soliq xizmati organida stajirovka o‘tash** – yosh mutaxassislarni soliq xizmatiga tayyorlash, kasbiy faoliyat mas‘uliyatini his etish va tajribali mutaxassislarning ish faoliyatini o‘rganish orqali OTMda olgan nazariy bilimlarini amaliy mustahkamlash jarayoni;

**maxsus komissiya** – stajirovka o‘tash yuzasidan test bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar bilan suhbat o‘tkazadigan, Soliq qo‘mitasi Raisining buyrug‘i asosida tashkil qilingan komissiya;

**stajirovka rahbari** – soliq xizmati organidagi stajirovka jarayonini

muvofiglashtirish mas'uliyati yuklangan rahbar xodim;

**ustoz-mentor** – stajirovka o'tayotgan bitiruvchilarga soliq xizmati organidagi faoliyatida “ustoz-shogird” an'anasi asosida zarur tashkiliy ko'rsatmalar beruvchi, ularni mehnat muhofazasi qoidalari bilan tanishtiruvchi, amaliy ko'nikma va malakalarni o'rgatuvchi, stajirovka davrida talaba egallagan ko'nikmalarni baholash yuklangan soliq xizmati organlarida kamida uch yillik tajribaga ega bo'lgan soliq xizmati organi xizmatchisi;

**shaxsiy rivojlanish rejasi** – bitiruvchining soliq xizmati organidagi stajirovkasi davomida o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar muddatlar kesimida aks ettiriladigan hujjat.

## **2-bob. Tanlov o'tkazish tartibi**

2. Dastur 1-ilovadagi sxema bo'yicha tegishli bosqichlarda va belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

3. Soliq xizmati organining rasmiy veb saytida “Soliq xizmati organlariga Yosh mutaxassislarini stajirovka o'tash uchun tanlab olish dasturi” bo'yicha stajirovka tanlovi haqida e'lon beriladi va targ'ibot tashviqot ishlari amalga oshiriladi.

4. Nomzodlardan Soliq qo'mitasida stajirovka o'tash bo'yicha tanlovda ishtirok etish uchun arizalar “Elektron soliq xizmatlari” **my.soliq.uz** portali orqali, soliq boshqarmalarida stajirovka o'tash yuzasidan arizalar soliq boshqarmalarining rasmiy veb saytida onlayn shaklda qabul qilinadi.

Arizada nomzodning familiyasi, ismi, otasining ismi (pasporti yoki ID-kartasidagi yozuv bilan aynan bir xil bo'lishi lozim), tahsil olayotgan oliy ta'lim muassasasi nomi, ta'lim shakli, ta'lim tili, kursi, ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi), aloqa telefon raqami to'liq ko'rsatiladi.

5. Malaka talablariga muvofiq kelgan nomzodlarga saralash bosqichida ishtirok etish uchun arizada ko'rsatilgan elektron pochta manzili yoki telefon raqami bo'yicha tegishli xabarnoma (SMS-xabarnoma) yuboriladi.

6. Nomzodlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, davlat fuqarolik xizmati va korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi qonunchilik, davlat tili, axborot texnologiyalari bo'yicha bilim darajasini aniqlash maqsadida soliq xizmati organi tomonidan tashkil etiladigan maxsus test sinovidan o'tkaziladi.

7. Test bosqichi Soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal institutning kompyuter xonalarida yoki soliq boshqarmalarida o'tkaziladi.

8. Test bosqichidan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar (*60 foizdan yuqori*) soliq xizmati organining maxsus komissiyasi tomonidan suhbatdan o'tkaziladi.

9. Nomzodlar 2, 3-ilovalarga muvofiq shaklda baholanadi. Baholash natijalariga ko'ra, sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar soliq xizmati organiga stajirovkaga qabul qilinadi.

## **3-bob. Stajirovkani tashkil etish qoidalari**

10. Stajirovka tanlovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan nomzod bilan 4-ilovaga muvofiq namunadagi shaklda stajirovka shartnomasi tuziladi.

11. Stajirovka o'tash muddati va tomonlar majburiyatlari stajirovka shartnomasida belgilanadi.

12. **Soliq xizmati organidagi stajirovka rahbari** stajirovka o'tayotgan barcha stajorlarga rahbarlik qiladi.

Uning vazifalari:

Soliq xizmati organining tarkibiy tuzilmalari va bo'limlari bo'yicha stajorlarni taqsimlaydi, soliq xizmati organining tuzilishi, faoliyat yo'nalishlari va o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi;

stajor bilan stajirovka o'tash shartnomasi tuzilishini ta'minlaydi;

stajorlar bilan tuzilma rahbarlari va yetakchi xodimlarining uchrashuvini tashkil etadi.

13. **Ustoz-mentor** sifatida soliq xizmati organlarida kamida uch yillik tajribaga hamda mehnat jamoasida obro'-e'tiborga ega bo'lgan soliq xizmati organi xizmatchisi "ustoz-shogird" an'anasi asosida ko'pi bilan ikki nafar stajorga birlashtirilishi mumkin.

Uning vazifalari:

stajorlarga ish faoliyati va texnika xavfsizligi bo'yicha tushuntirish beradi, shuningdek, soliq xizmati organining ichki tartib qoidalari va ish rejimining xususiyatlari bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatadi;

stajirovka dasturiga taalluqli materiallardan foydalanish tartib-qoidalarini o'rgatadi;

stajor ish kunining belgilangan davomiyligiga va stajorning shaxsiy ish rejasiga rioya etilishini nazorat qiladi.

14. **Stajor** soliq xizmati organida stajirovka o'tashda:

stajirovka bo'yicha uslubiy va ko'rsatma materiallar bilan tanishishi;

yuklatilgan huquq va majburiyatlarni amalga oshirishi;

stajorning shaxsiy ish-rejasida nazarda tutilgan barcha topshiriqlarni belgilangan muddatlarda, to'liq hajmda va sifatli bajarishi;

stajirovka o'tash to'g'risidagi hisobotni taqdim qilishi;

faoliyatida foydalanishi mumkin bo'lgan materiallar to'plamini shakllantirishi;

soliq xizmati organining ish rejimi, ichki mehnat tartib qoidalari va va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilishi shart.

#### **4-bob. Stajirovkani o'tash tartibi**

15. Stajirovka uch bosqichga bo'linadi:

tayyorlov;

asosiy;

hisobotlarni topshirish va baholash.

16. Stajirovka tayyorlov bosqichining birinchi kunida soliq xizmati organidagi stajirovka rahbari tomonidan yig'ilish o'tkaziladi. Yig'ilishda stajirovka o'tash dasturi bilan tanishtiriladi, uning maqsad va vazifalariga taalluqli ko'rsatmalar, stajirovkani o'tash va 5-ilovadagi hisobot shaklini to'ldirish tartibi haqida xabardor qilinadi.

Shuningdek, soliq xizmati organining tuzilishi, faoliyat yo'nalishlari, o'ziga xosligi bilan tanishtiriladi hamda stajirovka rahbari va biriktirilgan ustoz-mentor bilan birgalikda stajirovkani o'tash dasturini bajarish bo'yicha 6-ilovaga muvofiq, shaxsiy rivojlanish rejasida tuziladi.

17. Stajirovkaning asosiy bosqichida stajorlar bevosita stajirovkani o'tash dasturini bajarish bo'yicha Shaxsiy rivojlanish rejasida ko'rsatib o'tilgan ishlarni bajaradi.

18. Stajirovka yakunlari bo'yicha hisobotni topshirish so'nggi bosqich hisoblanadi. Belgilangan tartibdagi hisobot-taqdimot ustoz-mentor tomonidan tasdiqlanadi.

19. Stajirovkani muvaffaqiyatli yakunlagan bitiruvchilarga soliq xizmati organi rahbariyati tomonidan imzolangan sertifikatlar taqdim etiladi.

#### **6-bob. Yakunlovchi qoidalar**

20. Mazkur Dastur bo'yicha yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

@soliqnews